

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA QIYOSIY TILSHUNOSLIKNING SHAKLLANISHI

Andijon davlat chet tillari instituti Ingliz tili filologiyasi,

O'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti

Sharq tillari (xitoy tili) yo'nalishi 102-guruh talabasi

Jumayeva Mubina Dilmurod qizi

Ilmiy maslahatchi: **Zaynobiddinova I.M**

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbek tilshunosligida qiyosiy tilshunoslikning shakllanishi haqida ma'lumotlar beriladi. O'zbek tilshunosligida qiyosiy tilshunoslikning shakllanishi qadimgi manbalardan tortib, zamonaviy tadqiqotlarga bo'lgan bir necha muhim bosqichlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayon turkiy tillar oilasining boy tarixi va o'zbek tilining ushbu oiladagi o'rnini chuqur anglash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Qiyosiy tilshunoslik, o'zbek tilshunosligi, til tarixi, genetik aloqa, turkiy tillar, Mahmud Koshg'ariy, qiyosiy-tarixiy metod

Annotation: This article provides information about the formation of comparative linguistics in Uzbek linguistics. The formation of comparative linguistics in Uzbek linguistics includes several important stages, from ancient sources to modern research. This process allows for a deeper understanding of the rich history of the Turkic language family and the place of the Uzbek language in this family.

Keywords: Comparative linguistics, Uzbek linguistics, language history, genetic relationship, Turkic languages, Mahmud Kashgari, comparative-historical method.

Qiyosiy tilshunoslik-tillarning genetik qarindoshligini, ularning tarixiy rivojlanish qonuniyatlarini, shuningdek, umumiy va xususiy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan fundamental ilmiy yo'nalishdir. O'zbek tili tarixini, uning boshqa turkiy va noturkiy tillar bilan aloqalarini ilmiy asosda tadqiq etish, tilning fonetik, morfologik va leksik rivojlanishidagi qonuniyatlarni aniqlash qiyosiy tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Mazkur tadqiqot o'zbek tilshunosligida qiyosiy yo'nalishning tarixiy taraqqiyotini tizimlashtirish, ilgari erishilgan yutuqlarni umumlashtirish va kelajakdagi tadqiqotlar uchun yangi yo'nalishlarni belgilash nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahmud Ibn-ul-Husayn ibn Muhammad-al Qoshg'ariy o'z davrining atoqli olimi sifatida tilshunoslikka oid "Devonu lug'atit turk" asarini yaratgan. M. Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asari 1914-yilda Turkiyaning Diyorbakr shahrida topildi. Topilgan qo'lyozmani ko'chirgan kotib Muhammad binni Abu Bakr Damashqiy yozishicha, u bu nusxani Mahmud Qoshg'ariyning o'z dastxatidan olgan. "Devonu lug'atit turk" 1915-1917-yillarda uch tomдан iborat qilib Istanbulda nashr etiladi.

Xulosa: Mazkur maqolada qo'yilgan maqsad va vazifalar bajarilib, o'zbek tilshunosligida qiyosiy tilshunoslikning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari har tomonlama tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qiyosiy tilshunoslik o'zbek tilshunosligining eng qadimgi ildizlariga ega bo'lgan fundamental yo'nalishlardan biridir.

Tadqiqot davomida qiyosiy tilshunoslikning nazariy-metodologik asoslari, tillarning genetik tasnifi va turkiy tillar oilasi, shuningdek, fonetik, morfologik va leksik tahlil usullari atroflicha o'rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Musayev A. Umumiy tilshunoslik - Toshkent: Fan va texnologiya, 2007.
2. Qoraqulov S. Umumiy tilshunoslik asoslari. - Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2017
3. Ziyodullayev T. X. Tilshunoslikka kirish. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2012